BUXORO TARIXIY MARKAZIDAGI ABDULAZIZXON VA ULUG'BEK MADRASALARINING TURISTIK SIG'IM IMKONIYATLARINI BAHOLASH .....	604
<b>Ro'ziqulova Feruza Qurbon qizi, Qilichov Muhriddin Husniddin o'g'li</b>	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIVAVIY RAG'BATLANTIRISH HAMDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI .....	612
<b>Iskandarov Saidazamxon Salohiddin o'g'li</b>	
O'ZBEKISTONDA NOSTANDART BANDLIK ASOSIDA KICHIK BIZNES RIVOJINI BAHOLASHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	621
<b>Fayzullayev Nurulla Baxromovich</b>	



# O'ZBEKISTONDA NOSTANDART BANDLIK ASOSIDA KICHIK BIZNES RIVOJINI BAHOLASHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI

Fayzullayev Nurulla Baxromovich

Urganch RANCH texnologiya universiteti dotsenti, PhD

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekistonda nostandart bandlik negizida kichik biznes rivojini baholashning ilmiy-uslubiy asoslari ishlab chiqilgan. Tadqiqotning maqsadi – kichik biznes faoliyatida masofaviy ish, to'liqsiz ish vaqti, o'zini o'zi band qilish, uy mehnati va raqamli platformalar bilan bog'liq moslashuvchan bandlik shakllarining rivojlanishga ta'sirini baholash uchun indikatorlar tizimi hamda integral baholash algoritmini taklif etishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** nostandart bandlik, kichik biznes, baholash metodologiyasi, o'zini o'zi band qilish, masofaviy ish, raqamli platformalar, ijtimoiy himoya, egiluvchan mehnat bozori.

**Abstract.** This article develops the scientific and methodological foundations for assessing the development of small businesses based on non-standard employment in Uzbekistan. The purpose of the study is to propose a system of indicators and an integrated assessment algorithm for evaluating the impact of flexible forms of employment associated with remote work, part-time employment, self-employment, home-based work, and digital platforms on the development of small business activities.

**Key words:** non-standard employment, small business, assessment methodology, self-employment, remote work, digital platforms, social protection, flexible labour market.

**Аннотация.** В данной статье разработаны научно-методические основы оценки развития малого бизнеса на основе нестандартной занятости в Узбекистане. Цель исследования заключается в разработке системы индикаторов и алгоритма интегральной оценки, позволяющих определить влияние гибких форм занятости, связанных с дистанционной работой, неполным рабочим временем, самозанятостью, надомным трудом и цифровыми платформами, на развитие деятельности субъектов малого бизнеса.

**Ключевые слова:** нестандартная занятость, малый бизнес, методология оценки, самозанятость, дистанционная работа, цифровые платформы, социальная защита, гибкий рынок труда.

## KIRISH

Jahon mehnat bozorida nostandart bandlik shakllari — vaqtinchalik ish, to'liqsiz ish vaqti, ko'p tomonlama mehnat munosabatlari, bog'liq o'zini o'zi band qilish, platformali mehnat hamda masofaviy ish — mehnatni tashkil etishning barqaror institutsional shakliga aylanib bormoqda. Xalqaro mehnat tashkiloti ushbu fenomenni firmalar o'rtasidagi raqobatning kuchayishi, ishlab chiqarishni tashkil etish usullarining takomillashuvi hamda mehnatni tartibga solish mexanizmlarining transformatsiyasi bilan izohlaydi [1]. Shu nuqtai nazardan, nostandart bandlikni nafaqat ijtimoiy himoya bilan bog'liq masalalar doirasida, balki kichik biznes uchun xarajatlar moslashuvchanligini ta'minlash, bozor talabiga tezkor moslashish va resurslardan samarali foydalanish imkonini beruvchi muhim iqtisodiy mexanizm sifatida ham baholash zarur.

O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes yalpi qo'shilgan qiymat, bandlik hamda aholi daromadlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. 2025-yil yanvar–dekabr oylari yakunlariga ko'ra, kichik tadbirkorlik subyektlarining YalMdagi ulushi 52,2 foizni tashkil etdi. Shuningdek, 2026-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 1 201,6 mingtaga yetdi, 2025-yil davomida esa 82,4 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etildi [7]. Mazkur ko'rsatkichlar kichik biznes rivojini baholashda mehnatni tashkil etishning moslashuvchan shakllarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, milliy statistika amaliyotida nostandart bandlikning barcha shakllari yagona agregat ko'rsatkich sifatida to'liq aks ettirilmaydi. Shu sababli kichik biznes rivojini nostandart bandlik asosida baholash uchun mos indikatorlar tizimini ishlab chiqish, ularni rasmiy statistik ma'lumotlar bilan uyg'unlashtirish hamda integral baholash algoritmini taklif etish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi aynan ushbu masalalarni ilmiy-uslubiy jihatdan asoslashdan iborat.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nostandart bandlik nazariyasida XMTning 2016-yildagi fundamental hisoboti asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Unda nostandart bandlik shakllari vaqtinchalik ish, qisman bandlik, ko'p tomonlama mehnat munosabatlari hamda bog'liq o'zini o'zi band qilish kabi toifalarga ajratilib, ular mehnat bozoridagi moslashuvchanlik va xavf o'rtasidagi muvozanat nuqtai nazaridan talqin qilinadi [1].

Eurofound tadqiqotlarida esa nostandart bandlikning yangi shakllari ish vaqti, ish joyi hamda raqamli texnologiyalar bilan bog'liq o'zgarishlar orqali izohlanadi. Xususan, platformali ish, ICT-bazaviy mobil mehnat, job sharing va portfolio work kabi shakllar kichik biznes uchun ishchi kuchini jalb etishning yangi modellarini shakllantirishi ta'kidlangan [2].

OECDning O'zbekiston bo'yicha tahlillari xususiy sektor raqobatbardoshligini oshirishda raqamli ko'nikmalar va firmalarning raqamli transformatsiyaga tayyorligi muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Hisobotda kichik firmalarda raqamli yechimlardan foydalanish ko'lamini yanada kengaytirish, raqamli va komplementar ko'nikmalarni rivojlantirish hamda axborot infratuzilmasini takomillashtirish orqali iqtisodiy samaradorlik va innovatsion faollikni sezilarli darajada oshirish imkoniyatlari mavjudligi ta'kidlangan [3].

Jahon banking 2025-yildagi mamlakat iqtisodiy memorandumida O'zbekistonda xususiy sektor yetakchiligidagi iqtisodiy o'sishni jadallashtirish uchun ichki bozorlar samaradorligini oshirish, biznes muhitini takomillashtirish, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish muhimligini ko'rsatadi [4]. Mazkur xulosa nostandart bandlikni kichik biznes rivojida funksional institut sifatida baholashning amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Milliy huquqiy baza ham nostandart bandlikni tartibga solish yo'nalishida sezilarli darajada takomillashtirilgan. Yangi Mehnat kodeksida masofaviy ishning huquqiy rejimi, doimiy va vaqtinchalik masofadan ishlash, aralash rejim hamda elektron hujjat aylanishi orqali mehnat shartnomasini tuzish tartiblari mustahkamlangan [5]. Shuningdek, PQ-4742-son qaror<sup>1</sup> bilan o'zini o'zi band qilgan shaxslar amalga oshirishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari kengaytirilib, ushbu segmentni rasmiy iqtisodiyotga jalb etish uchun institutsional asos yaratilgan [6] (1-jadval).

1-jadval. Nostandart bandlik va kichik biznesni baholashga doir asosiy yondashuvlar

Manba	Asosiy g'oya	Baholash uchun ahamiyati	Ishda qo'llanilishi
[1] XMT	Nostandart bandlik mehnat bozoridagi moslashuvchan, biroq muayyan xavf omillariga ega shakllar majmuasi sifatida talqin qilinadi.	Baholashda mehnat moslashuvchanligi va ijtimoiy himoyani bir vaqtda o'lchash zarurligini ko'rsatadi.	To'rt blokli indikator tizimining nazariy asosi sifatida xizmat qiladi.
[2] Eurofound	Yangi ish shakllari raqamli texnologiyalar, ish vaqti hamda ish joyining transformatsiyasi bilan bog'liq.	Kichik biznes uchun platformali ish, mobil ish va gibril bandlikni hisobga olish zarurligini asoslaydi.	Indikatorlar tarkibiga raqamli tayyorlik va ish shakllari diversifikatsiyasi kiritildi.
[3] OECD	O'zbekistonda raqamli ko'nikmalar va SME raqamlashtirish darajasini rivojlantirish zarur.	Raqamli ko'nikmalarni baholash blokini kiritish zarurligini ko'rsatadi.	Raqamli-institutsional tayyorlik subindeksi shakllantirildi.
[4] Jahon banki	Xususiy sektor yetakchiligidagi o'sish uchun bozorlar, moliya va biznes muhiti sifatini takomillashtirish talab etiladi.	Kichik biznes rivojini mehnat shakllaridan ajralmagan holda baholash imkonini beradi.	Iqtisodiy natijaviylik blokining nazariy asosini shakllantirdi.
[5]–[6] Lex.uz	Masofaviy ish va o'zini o'zi band qilish huquqiy jihatdan tartibga solingan.	Formallasuv va huquqiy aniqlikni baholash uchun normativ asos yaratadi.	Formallasuv hamda institutsional qamrov indikatorlari tanlandi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.06.2020 yildagi PQ-4742-son <https://lex.uz/docs/-4849607>



1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, xalqaro va milliy manbalarda nostandart bandlik nafaqat mehnat munosabatlarining alohida shakli, balki kichik biznes rivojini ta'minlovchi ko'p omilli iqtisodiy institut sifatida ham talqin qilinadi. Shu asosda maqolada mualliflik baholash modeli taklif etildi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik-grafik tahlil, institutsional tahlil, indikatorlar tanlovi, normallashtirish hamda integral baholash usullaridan foydalanildi. Empirik baza sifatida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, api.siat.stat.uz ochiq ma'lumotlari, Lex.uz milliy qonunchilik bazasi, shuningdek, XMT, Eurofound, OECD va Jahon banki materiallari qo'llanildi [1–11].

Nostandart bandlik negizida kichik biznes rivojini baholash uchun quyidagi to'rtta subindeks ajratildi:

1. mehnat moslashuvchanligi;
2. iqtisodiy natijaviylik;
3. formallashtirish va ijtimoiy himoya;
4. raqamli-institutsional tayyorlik.

Har bir blok tarkibiga rasmiy statistikada kuzatilishi mumkin bo'lgan hamda nostandart bandlik ta'sirini bevosita yoki bilvosita aks ettiruvchi ko'rsatkichlar kiritildi.

Stimulyator ko'rsatkichlar uchun normallashtirish quyidagi ko'rinishda taklif etildi:

$$z_{ij} = (x_{ij} - \min x_j) / (\max x_j - \min x_j)$$

$$\text{destimulyatorlar uchun: } z_{ij} = (\max x_j - x_{ij}) / (\max x_j - \min x_j)$$

$$\text{subindeks: } I_k = \sum (w_j \cdot z_{ij})$$

$$\text{integral indeks: } \text{INBKBR} = \sum (\alpha_k \cdot I_k)$$

Bu yerda:

- $z_{ij}$  — normallashtirilgan qiymat;
- $w_j$  — indikator salmog'i;
- $\alpha_k$  — subindeks vazni.

Natijalarni talqin qilish uchun quyidagi shkala taklif etildi:

0,00–0,39 — past;

0,40–0,69 — o'rta;

0,70–1,00 — yuqori.

Milliy statistikada nostandart bandlikning barcha turlari to'liq ajratilmaganligi sababli, maqolada proksi-ko'rsatkichlardan foydalanildi. Mazkur yondashuv metodologik jihatdan amaliy ahamiyatga ega bo'lib, replikasiya qilinishi mumkin bo'lgan modelni shakllantirish imkonini beradi (2-jadval).

2-jadval. Nostandart bandlik asosida kichik biznes rivojini baholash indikatorlari tizimi

Blok	Indikator	Turi	Tavsiya etilgan salmoq
Mehnat moslashuvchanligi	Kichik biznesning jami bandlikdagi ulushi	Stimulyator	0,25
Mehnat moslashuvchanligi	O'zini o'zi band qilishdan olinadigan daromad ulushi	Stimulyator	0,15
Iqtisodiy natijaviylik	Kichik biznesning YalMdagi ulushi	Stimulyator	0,20
Iqtisodiy natijaviylik	Aholi umumiy daromadida kichik biznes daromadi ulushi	Stimulyator	0,15
Formallashtirish va himoya	Masofaviy ish va o'zini o'zi band qilishga oid huquqiy baza mavjudligi	Binar	0,10
Institutsional dinamika	Yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar intensivligi	Stimulyator	0,10
Raqamli tayyorlik	SME raqamli ko'nikmalari va qo'llab-quvvatlash muhiti	Ekspert	0,05

2-jadvalda keltirilgan tizim tadqiqot obyektining o'ziga xos jihatlari kompleks ravishda hisobga oladi. Bir tomondan, kichik biznes uchun moslashuvchan mehnatni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etsa, ikkinchi tomondan, mazkur moslashuvchanlik formallashtirish, huquqiy kafolatlar hamda raqamli infratuzilma bilan uyg'unlashgandagina yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda iqtisodiy faol aholi soni 2024-yilda 15 097,9 ming kishini, iqtisodiyotda band bo'lganlar soni esa 14 261,9 ming kishini tashkil etdi [9–10]. Mazkur ko'rsatkichlar asosida ishsizlik darajasi taxminan 5,5 foizni tashkil etganini hisoblash mumkin. Rasmiy ochiq ma'lumotlarga ko'ra, kichik biznes subyektlarining jami bandlikdagi ulushi 2024-yilda 74,5 foizga teng bo'lgan [8]. Demak, hisob-kitoblarga ko'ra, iqtisodiyotda band aholining qariyb 10,6 million nafari kichik biznes bilan bog'liq mehnat faoliyatida ishtirok etgan.

Kichik biznesning makroiqtisodiy ahamiyati 2025-yil yakunlari bo'yicha ham yuqori darajada saqlanib qoldi. Jumladan, uning YalMdagi ulushi 52,2 foizni tashkil etdi, faoliyat yuritayotgan subyektlar soni 1 201,6 mingtaga yetdi, 2025-yil davomida esa 82,4 mingta yangi kichik korxon va mikrofirma tashkil etildi [7]. Mazkur holat kichik biznes nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratishda, balki bozor dinamikasini ta'minlashda ham muhim iqtisodiy drayver sifatida faol ishtirok etayotganini ko'rsatadi.

Daromadlar tarkibi nostandart bandlikning iqtisodiy mazmunini yanada aniqroq namoyon etadi. 2025-yil yanvar–dekabr oylarida aholi umumiy daromadlari tarkibida kichik biznesdan olinadigan daromadlar ulushi 58,0 foizni, o'zini o'zi band qilishdan olinadigan daromadlar ulushi esa 34,0 foizni tashkil etdi [11]. Ushbu ko'rsatkichlar nostandart bandlik shakllari uy xo'jaliklari daromad manbalarini diversifikatsiya qilishda muhim o'rin tutayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, milliy huquqiy muhit ham baholash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat kodeksida masofaviy ishning maxsus normalari hamda elektron shaklda mehnat shartnomasini tuzish imkoniyati mustahkamlangan [5]. O'zini o'zi band qilish faoliyat turlarini kengaytirishga qaratilgan qaror esa norasmiy mehnatning muayyan qismini rasmiy iqtisodiy aylanmaga jalb etishga xizmat qilmoqda [6]. Demak, nostandart bandlikni baholash jarayoni nafaqat iqtisodiy natijalarni, balki institutsional muhit va huquqiy mexanizmlar samaradorligini ham qamrab olishi zarur (1-rasm).




1-rasm. Kichik biznes subyektlarining jami bandlikdagi ulushi dinamikasi, 2020–2024-yy., %

1-rasmda ko'rinadiki, 2020–2024-yillarda kichik biznesning jami bandlikdagi ulushi 73,9–74,5 foiz oralig'ida barqaror saqlanib qolgan. Mazkur holat kichik biznesning mehnat bozorida tizimli institut sifatida shakllanganini hamda nostandart bandlik shakllari ayrim hollarda ushbu sektorning funksional elementi sifatida namoyon bo'layotganini ko'rsatadi (2-rasm).



Ностандарт бандлик негизда кичик бизнес ривожини баҳолашга доир асосий индикатор



2-rasm. Nostandart bandlik negizida baholashga doir asosiy makroindikatorlar, 2024–2025-yy., %

Taklif etilgan metodologiyani aprobatsiya qilish maqsadida rasmiy statistika hamda normativ ma'lumotlar asosida qisqartirilgan baholash matritsasi shakllantirildi. Aprobatsiya jarayonida mehnat moslashuvchanligi, iqtisodiy natijaviylik, formallashuv hamda raqamli tayyorlik bilan bog'liq oltita indikatoridan foydalanildi. Ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha to'g'ridan to'g'ri statistik ma'lumotlar mavjud bo'lmaganligi sababli, ekspert baholash usullari va binar indikatorlar qo'llanildi (3-jadval).

3-jadval. O'zbekiston bo'yicha pilot baholash natijalari

Indikator	Qiymat	Benchmark	Ball	Vazn	O'Ichangan ta'sir
Kichik biznesning jami bandlekdagi ulushi	74,5 %	>70 %	1,00	0,25	Yuqori
Kichik biznesning YalIMdagi ulushi	52,2 %	50–60 %	0,80	0,20	O'rta-yuqori
Aholi daromadida kichik biznes ulushi	58,0 %	>55 %	1,00	0,15	Yuqori
O'zini o'zi bанд qilishdan daromad ulushi	34,0 %	30–40 %	0,80	0,15	O'rta-yuqori
Yangi subyektlar intensivligi	6,9 %	>6 %	0,90	0,10	Yuqori
Huquqiy va raqamli muhit	mavjud, ammo cheklangan	mavjud	0,75	0,15	O'rta-yuqori

Pilot baholash natijalariga ko'ra, integral indeks qiymati 0,89 ni tashkil etdi. Bu esa taklif etilgan shkala asosida O'zbekistonda nostandart bandlik negizida kichik biznes rivojini ta'minlash imkoniyatlari yuqori darajada shakllanayotganini ko'rsatadi. Mazkur natija mamlakatda kichik biznesni rivojlantirish, mehnat bozorining moslashuvchanligini oshirish hamda zamonaviy bandlik shakllarini iqtisodiy faoliyatga keng jalb etish bo'yicha amalga oshirilayotgan institutsional islohotlarning ijobiy samarasini aks ettiradi. Shu bilan birga, rasmiy statistikada platformali mehnat, qisman ish vaqti hamda masofaviy ish bo'yicha batafsil ko'rsatkichlarni yanada kengaytirish istiqbolda baholash aniqligi va tahliliy imkoniyatlarni oshirishga xizmat qiladi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, nostandart bandlikning iqtisodiy samaradorligi uning huquqiy aniqligi va formallashuv darajasi bilan chambarchas bog'liq. Agar masofaviy ish, mustaqil ijrochilik yoki o'zini o'zi bанд qilish shakllari mehnat huquqi, soliq tizimi hamda ijtimoiy himoya mexanizmlari bilan uyg'unlashsa,



ular kichik biznesning moslashuvchanligi va raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim omilga aylanadi. Shu nuqtai nazardan, raqamli shartnomalar tizimi, ro'yxatdan o'tish tartib-taomillarining soddalashtirilishi, mikromalaka dasturlari hamda portativ ijtimoiy himoya mexanizmlarini rivojlantirish nostandart bandlikni samarali va mahsuldor iqtisodiy resurs sifatida shakllantirish imkonini beradi [1–6].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari nostandart bandlik negizida kichik biznes rivojini baholashda iqtisodiy, mehnat, institutsional hamda raqamli ko'rsatkichlarni o'zaro uyg'un holda qamrab oluvchi kompleks yondashuvdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan mualliflik metodologiyasi mehnat moslashuvchanligi, iqtisodiy natijaviylik, formallasuv va ijtimoiy himoya, shuningdek, raqamli-institutsional tayyorlik bloklariga asoslangan indikatorlar tizimi hamda integral baholash algoritmini taklif etadi.

Rasmiy statistika ma'lumotlari O'zbekistonda kichik biznes nostandart bandlik shakllari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanayotganini tasdiqlaydi. Xususan, sektorning jami bandlikdagi ulushi 74,5 foizni, YalMdagi ulushi 52,2 foizni, aholi umumiy daromadlarida kichik biznes ulushi 58,0 foizni, o'zini o'zi band qilishdan olinadigan daromad ulushi esa 34,0 foizni tashkil etgan [7–11]. Ushbu ko'rsatkichlar nostandart bandlik shakllarining iqtisodiy faollikni oshirish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish hamda mehnat bozorining moslashuvchanligini ta'minlashdagi muhim o'rnini namoyon etadi.

Pilot baholash natijalari mamlakatda nostandart bandlik negizida kichik biznes rivojini ta'minlash salohiyati yuqori ekanini ko'rsatdi. Shu bilan birga, rasmiy statistikada platformali mehnat, gibrid ish va qisman bandlikka oid batafsil ko'rsatkichlarning yetarli emasligi metodologik jihatdan takomillashtirishni talab qiladigan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur holat nostandart bandlikning zamonaviy shakllarini yanada chuqurroq monitoring qilish hamda statistik kuzatuv tizimini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Shu munosabat bilan nostandart bandlik shakllari bo'yicha rasmiy statistika klassifikatorini joriy etish, masofaviy ish, platformali mehnat va o'zini o'zi band qilishga oid alohida hisobot ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, kichik biznes uchun portativ ijtimoiy himoya modelini amaliyotga tatbiq etish, raqamli mikromalaka dasturlari hamda elektron shartnoma infratuzilmasini kengaytirish, shuningdek, hududlar kesimida nostandart bandlik indeksi asosida monitoring tizimini shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. International Labour Organization. Non-standard Employment around the World: Understanding Challenges, Shaping Prospects. — Geneva: ILO, 2016. — URL: [ILO official website](#) (murojaat sanasi: 10.05.2026).
2. Eurofound. New Forms of Employment: 2020 Update. — Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2020. — URL: [Eurofound official website](#) (murojaat sanasi: 10.05.2026).
3. OECD. Digital Skills for Private Sector Competitiveness in Uzbekistan. — Paris: OECD Publishing, 2023. — URL: [OECD official website](#) (murojaat sanasi: 10.05.2026).
4. World Bank. Uzbekistan Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration. — Washington, DC: World Bank, 2025. — URL: [World Bank official website](#) (murojaat sanasi: 08.05.2026).
5. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, 2022-yil 28-oktabr. — URL: [Lex.uz](#) (murojaat sanasi: 03.05.2026).
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 08.06-dagi PQ–4742-son qarori "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". — URL: (murojaat sanasi: 03.05.2026). <https://lex.uz/docs/4849607>
7. O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari. 2025-yil yanvar–dekabr. — O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 26.01.2026-yil. — URL: [O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi](#) (murojaat sanasi: 03.05.2026).
8. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi. — [api.siat.stat.uz](http://api.siat.stat.uz), 21.10.2025-yil. — URL: [api.siat.stat.uz](http://api.siat.stat.uz) (murojaat sanasi: 03.05.2026).
9. Iqtisodiyotda bandlar soni. — [api.siat.stat.uz](http://api.siat.stat.uz), 20.04.2026-yil. — URL: [api.siat.stat.uz](http://api.siat.stat.uz) (murojaat sanasi: 08.05.2026).
10. Iqtisodiy faol aholi soni. — [api.siat.stat.uz](http://api.siat.stat.uz), 20.04.2026-yil. — URL: [api.siat.stat.uz](http://api.siat.stat.uz) (murojaat sanasi: 08.05.2026).
11. Total Income of the Population of the Republic of Uzbekistan. — O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 26.01.2026-yil. — URL: [O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi](#) (murojaat sanasi: 07.05.2026).
12. Small Business in the Republic of Uzbekistan in January–December 2024. — Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan. — URL: [Statistics Agency of Uzbekistan](#) (murojaat sanasi: 07.05.2026).



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2026. № 5 (2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>